

Norqulov Husniddin Do'sbekovich,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
bo'limi boshlig'i, ped. fan. nom., dotsent*



Ortikova Musallam Jahongir qizi,
*Toshkent davlat texnika universiteti Amaliy
ingliz tili kafedrası katta oqituvchisi*



MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA O'SMIRLARNI OILAGA TAYYORLASHNI SAMARALI TASHKIL ETISH

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy qadriyatlar doimo boyitilib, ma'naviyat orqali singdirilganligi va bu o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda juda muhim ekanligi qayd etilganligi, ma'naviy qadriyatlar o'smirlarning oilaviy hayotga tayyorlanishida ham barcha ehtiyojlarini qondirishga, ta'minlashga xizmat qiladigan, ota-bobolar tomonidan shakllantirib kelinayotganligi keltirilgan.

Аннотация. В статье отмечается, что посредством духовности постоянно обогащаются и прививаются духовные ценности, и это очень важно в подготовке подростков к семейной жизни. Также упоминается, что духовные ценности служат удовлетворению всех потребностей подростков при подготовке к семейной жизни.

Annotation. The article notes that spiritual values are constantly enriched and instilled through spirituality, and that this is very important in preparing adolescents for family life, and that spiritual values serve to satisfy and provide for all the needs of adolescents in preparing for family life, and are formed by parents.

Tayanch soʻzlar: qadriyatlar, maʼnaviy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar, oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, mahalla, oila, ota-onalar, maʼnaviy-axloqiy komillik, maʼnaviyat.

Ключевые слова: ценности, нравственные ценности, обычаи, традиции, подготовка подростков к семейной жизни, махалля, семья, родители, духовно-нравственное совершенство, духовность.

Keywords: values, spiritual values, customs, traditions, preparing adolescents for family life, makhalla, family, parents, spiritual and moral perfection, spirituality.

Maʼnaviy qadriyatlarga hurmat bilan qarash oilaviy hayotga tayyorlanayotgan oʻsmirlarning asosiy belgisidir. Uzoq tarixga ega maʼnaviy qadriyatlarimiz oilaviy urf-odatlar, anʼanalar bilan hamohanglikda taraqqiyotimizni tezlatadi hamda gʻoyaviy va maʼnaviy poklanishni taʼminlashga koʻmaklashadi.

Kirish. Maʼnaviy qadriyatlar insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, insoniy munosabatlarida namoyon boʻlsa, ikkinchidan odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon boʻladi. Innovation texnologiyalar takomillashib borayotgan bir davrda haqiqiy maʼnaviyatli va maʼrifatli insonlarga oʻz milliy-maʼnaviy va oilaviy qadriyatlarini, milliy oʻzligini, rivojlangan va jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻrnini egallashi, did-farosatli, aql-idrokli boʻlish, yaxshilikni yomonlikdan, ezgulikni jaholatdan, adolatni razillikdan, ogohlikni loqaydlikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Maʼnaviy qadriyatlarga hurmat bilan qarash oilaviy hayotga tayyorlanayotgan oʻsmirlarning asosiy belgisidir. Uzoq tarixga ega maʼnaviy qadriyatlarimiz oilaviy urf-odatlar, anʼanalar bilan hamohanglikda taraqqiyotimizni tezlatadi hamda gʻoyaviy va maʼnaviy poklanishni taʼminlashga koʻmaklashadi. Maʼnaviy qadriyatlar oilaviy hayotga tayyorlanayotgan oʻsmirlarning kelgusida farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, maʼnaviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar boʻlib hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirgi davrda oilaviy hayotga tayyorlanayotgan oʻsmirlar maʼnaviyatiga salbiy taʼsir etuvchi, oʻsmirlarni oilaviy qadriyatlarga nisbatan befarqlik ruhida tarbiyalaydigan buzgʻunchi gʻoyalar orqali salbiy taʼsir oʻtkazishdir. Demak, mazkur mafkuraviy va maʼnaviy xurujlarning maqsad va mohiyatini vaqtida tushunib anglab oladigan hamda ularga nisbatan oʻz fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega boʻlgan oʻsmirlarni tarbiyalashda maʼnaviy qadriyatlarning oʻrni beqiyosdir. Oʻsmirlar faolligini taʼminlashning yana bir muhim yoʻnalishi ular ongida maʼnaviy qadriyatlar, oilaviy urf-odat va anʼanalarni shakllantirishdir. Oilaviy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan boʻlib, bu bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, maʼnaviy barkamol oʻsmirlarni oʻziga xos boʻlgan maʼnaviy qadriyatlar, oilaviy urf-odatlar xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulugʻvorlik, sabrlilik

kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi ma'naviy va oilaviy qadriyatlar aynan urf-odat an'analarda qaror topadi.

O'rta qo'yilayotgan oilaviy va yoshlar tarbiyasiga oid muammolarning quyidagi sabablari bor: a) kattalarning o'smirlarga shaxs sifatida emas, ta'sir ob'ekti sifatida qarashi; b) o'smirlar kattalar harakatida o'zlariga mos bo'lmagan axloqni ko'rib, sezsalar ulardan qocha boshlaydilar, natijada, ular o'zlarini aldamaydigan, teng ko'radigan odamni izlashni boshlaydilar; v) juda ko'p bolalar uchun oila hayotiy misollarda tajovuzkor axloq va psixik jarohatni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning asosiy manbai hisoblanadi; g) o'smir o'zi yashayotgan oilani do'stlarining oilalari bilan solishtiradi, undan to'g'ri yoki noto'g'ri xulosa chiqaradi; d) o'qituvchi o'smirning oilaviy sharoitini o'rganmasdan muomala qilishi, uning axloqi keskin o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin; ye) o'smir hayotining sharoitlari (etimlik, jinoyatchilik, jismoniy va psixik zaifliklar). Jinoyatchilikning katta foizi hayot sharoiti o'ta og'ir bo'lgan o'smirlar, ya'ni jinoyatchi, ota-ona yoki har ikkovi muntazam spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi, janjalkash oilalarning bolalari, jismoniy va psixik og'ishga moyil bo'lganlar hisobiga to'g'ri keladi. O'smir va yoshlarni bunday axloqiy holatlardan va turli-tuman og'ishlardan, illatlardan, yomon guruhlariga kirib qolishdan saqlashda najot ko'prigi bo'lib xizmat qiladigan yagona narsa – bu o'smir qalbiga yo'l topa olish, u bilan do'stona, samimiy, o'zaro ishonch asosiga quriladigan munosabat o'rnatishdir [1].

X.Djaber, o'z navbatida, “Oilaviy qadriyatlarni o'zgartirish faqat haqiqat tomonidan belgilanadigan yangi qadriyat yo'nalishlarini ongli ravishda qabul qilish va hayot yo'lida ularga rioya qilishga urinish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'zgarishlar inqiroz davrida, eski odat qulaganida va shaxs tomonidan standart sifatida qabul qilingan prinsiplarga muvofiq yashashning iloji bo'lmaganda yuz berishi mumkin. Natijada, ba'zi qadriyatlar ahamiyatini yo'qotadi, boshqalari esa dolzarb bo'lib qoladi. Inqiroz va transformasiya jarayonlaridan so'ng monolit tizim plyuralistik tizim bilan almashtiriladi va har bir inson turli xil asoslar asosida o'z bahosini beradi” [2].

Asrlar davomida yashab kelayotgan urf-odatlarimiz udumlarimiz, qadriyatlarimiz, jumladan, choyxona suhbatlari, uchrashuvlar, mavsumiy bayramlar, lola sayillari, “boychechak” aytish, qovun sayillari, bola tug'ilishi bilan bog'liq aqiqa marosimlari, qizlar majlisi, “yuz ochdi”, “kelin salomlari”, sumalak, echki o'yini, uloq o'yini kabi marosimlarning hammasi ham yoshlarni o'zbekona oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz tomonidan amal qilinayotgan milliy odatlarimizga ko'ra kattalarga birinchi bo'lib salom berish, kattalar

X.Djaber, o'z navbatida, “Oilaviy qadriyatlarni o'zgartirish faqat haqiqat tomonidan belgilanadigan yangi qadriyat yo'nalishlarini ongli ravishda qabul qilish va hayot yo'lida ularga rioya qilishga urinish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'zgarishlar inqiroz davrida, eski odat qulaganida va shaxs tomonidan standart sifatida qabul qilingan prinsiplarga muvofiq yashashning iloji bo'lmaganda yuz berishi mumkin.

suhbatiga aralashmaslik, uyga mehmonlardan soʻng kirish, eshikni birinchi boʻlib ochib, ushlab turish, davralarda kattalardan yuqoriga oʻtmaslik kabi odob qoidalariga rioya qilish talab etiladi [3].

Oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xalq bayramlari, ayniqsa, Ramazon va Qurbon hayitlari, Navroʻz bayrami katta tarbiyalovchi xarakterga ega. Masalan, Navroʻz bayramida juda rang-barang xalq oʻyinlari, musoboqalar, kasallarning koʻnglini soʻrash, qarindosh-urugʻlarni yoʻqlash, urishganlarning yarashishi - hammasi oʻsmirlarda mehr-muruvvatli boʻlish, oʻzgalarga oqibat koʻrsatish, ahillik, kechirimli boʻlish, inoqlik kabi xislatlar ham tarkib toptiriladiki, bu xislatlar ular oila qurganlarida ham nihoyatda asqotadi. Mahallaning tarbiyalovchilik taʼsiri yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nihoyatda kuchlidir. Toʻylar, kelin salom, yuz ochdilarida bajariladigan udumlar, aytiladigan pand-nasihatlari, maslahatlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Oilada mavjud tartib-qoidalar – jamiyat va davlat intizomining poydevoridir. Abdurauf Fitrat oʻzining “Oila va oila boshqarish tartiblari” asarida shunday yozgan edi: “Har bir millatning saodati va izzati albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogʻliq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam boʻladi” [4].

***Oilada mavjud
tartib-qoidalar –
jamiyat va davlat
intizomining
poydevoridir.
Abdurauf Fitrat
oʻzining “Oila va
oilal boshqarish
tartiblari” asarida
shunday yozgan
edi: “Har bir
millatning saodati
va izzati albatta,
shu xalqning
ichki intizomi va
totuvligiga bogʻliq.***

Zamonaviy sharoitda oilaviy qadriyatlarning pasayishi, oilaviy nizolar sonining koʻpayishi, ayollar va erkaklarning ijtimoiy mavqeyining oʻzgarishi kuzatilmoqda. Toʻliq boʻlmagan oilalar soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, oiladagi zoʻravonlik yuqori darajada qolmoqda. Koʻpgina nikohlar ajralish bilan tugaydi va odamlarning katta qismi munosabatlarini roʻyxatdan oʻtkazmaslikni afzal koʻradi. Bugungi yoshlarning oila qurish masalalari ahvoli xavotirli va uni qoniqarli deb baholash qiyin. Shuning uchun, ehtimol, turmush qurganlarning aksariyati oilaviy hayotga tayyor emas, uning qiyinchiliklari va kelajakda turmush oʻrtoqlar hal qilishlari kerak boʻlgan muammolar haqida aniq tasavvurga ega emaslar.

Shu munosabat bilan oilaviy hayotdagi salbiy hodisalar: ajralishlar, toʻliq boʻlmagan oilalar, oiladagi zoʻravonlik, bolalar qarovsizligi va uysizlar sonining koʻpayishining oldini olish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish, ayniqsa, yoshlar orasida dolzarbdur. Yoshlarning ijtimoiy salomatligining yomonlashuvi alohida eʼtiborni talab qiladi. Xususan, oʻsmir-yoshlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda yangicha yondashuvlarni yaratish, innovasion ijtimoiy texnologiyalardan foydalangan holda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va oilaviy hayotga tayyorlash tadbirlari dasturlarini joriy etish juda muhim.

O'smirlarning oiladagi hayotida uchraydigan quyidagi tendensiyalarni keltirish mumkin:

- yosh oilaning beqarorlashuvi, xususan, ajralishlar va to'liq bo'lmagan oilalar, yolg'iz onalar sonining ko'payishi, yigitlar o'limining yuqori bo'lishi va buning oqibatida yosh ayollar o'rtasida bevalikning keng tarqalishi;

- oilaviy hayot va uy hayotining an'anaviy standartlarini o'zgartirish, avlodlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi, bu yoshlarning keksa avlod tajribasiga tanqidiy va norozilik munosabati, zamonaviy yangi turmush qurganlarning turmush tarzining o'zgarishi;

- yoshlarning nizolarni hal qilishni, hamkorlik qilishni va murosaga kelishni istamasligi va qobiliyatsizligi bilan birga oila ichidagi munosabatlarda (er-xotin, ota-ona-bola) nizolarning kuchayishi;

- reproduktiv va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishga intilayotganda yosh ayollar o'rtasida rol ziddiyatlarining kuchayishi;

- intim munosabatlar madaniyatining pastligi, yosh ayollar salomatligiga putur yetkazuvchi abortlarning keng tarqalganligi, yigitlarning kontraseptiv xulq-atvor madaniyati haqida yomon xabardorligi;

- yoshlarning jinsiy xulq-atvori standartlari va normalarida gender farqlarini tenglashtirish;

- nikohning turli shakllarini shakllantirish – de-fakto va fuqarolik nikohi, qayta nikoh, mehmon nikohi va boshqalar [5].

Mavjud vaziyat yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda yangicha yondashuvlarni izlashni, shuningdek, o'smirlar auditoriyasida turmush qurishga ongli shaxsiy motivasiyani shakllantirish uchun alohida psixologik-pedagogik va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Yosh avlod nafaqat ijtimoiy voqelikning "yorilishlariga" qarshilik ko'rsatishi, balki o'zlari uchun "shaxs-oila-jamiyat" tizimida, bizningcha, ma'lum bilimlarni egallashni nazarda tutuvchi muhim qadriyat yo'riqnomalarini shakllantirishi muhim. Bularning barchasini amalda qo'llash uchun munosabat va ko'nikmalar shakllanishi kerak bo'ladi.

Ma'naviy qadriyatlar asosida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga to'xtalib o'tish joiz. Respondentlardan oila va nikoh tushunchasi haqida so'ralganda 33,7% "Muqaddas tushuncha", 25,5% "Inson voyaga yetgach shart bo'lgan tuzilma", 18,2% "Hozirgi kunda barcha insonlar baxtli yashashining asosiy mezonlaridan biri deb tushunadigan ijtimoiy uyushma", 9,3% "Ota-ona roziligi bilan tuziladigan uyushma", 7,9% "Inson hayoti va avlodlar bardavomligini ta'min etuvchi maskan" 3,6% ishtirokchilar

Mavjud vaziyat yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda yangicha yondashuvlarni izlashni, shuningdek, o'smirlar auditoriyasida turmush qurishga ongli shaxsiy motivasiyani shakllantirish uchun alohida psixologik-pedagogik va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

***Farzandlar
tarbiyasida
ota-onaning
mas'ulligi bo'yicha
respondentlardan
70% "Er va
xotinning
birgalikdagi
ma'sulligida
bo'lishi zarur",
21% "Erning", 9%
"Xotinning" degan
javoblar oilada
farzand tarbiyasi
borasida er va
xotinning o'rni
juda muhimligi
farzandning yetuk
bo'lishida roli
kattadir.***

“O‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotgan institutsional tuzilma” ekanligini bildirishgan. Demak, o‘smirlar oilani muqaddas tushuncha, inson voyaga yetganda tuziladigan tuzilma sifatida qabul qilishini ko‘rish mumkin.

“Oila nima uchun quriladi” degan savolga respondentlardan 47,8% “Avlodlar bardavomligini ta‘minlash uchun”, 21,2% respondentlar “Inson yolg‘iz yashamasligi uchun”, 28,3% respondent “Ota-onalar shuni xohlashgani uchun”, 10,6% “Javob berishim qiyin”. Ilmiy ishni yozish va nazariyalarni amaliyotda tadbig‘ini ko‘rish va muhit bo‘ylab kuzatish jarayonida aniqlandiki, oila institutining reproduktiv vazifalaridan biri bo‘lgan avlod qodirish va avlodni davom ettirish ekanligi amaliyotda ham yuqori o‘rinlarda turushi isbotlandi.

“Sizningcha necha yoshda oila qurgan ma‘qul” degan savolga jami respondentlardan 34,2% “Qizlarda 18-20 yoshda, yigitlarda 25-27 yoshda”, 26,4% “Maktabni bitirgach, 18-22 yosh oralig‘ida”, 16,5% “Hayotda oilani moddiy ta‘minlashga, ota-ona bo‘lishga tayyor bo‘lsagina”, 15,6% “Qancha erta bo‘lsa, shuncha yaxshi”, 7,3% “Javob berishim qiyin” javoblarini tanlashgan. 7,3% respondentlar “Javob berishim qiyin” degan qatorni belgilaganligi ma‘lum ma‘noda ularga hech qanday farqi yo‘qligi yoki bo‘lmasa qandaydir karrierani mo‘ljallagan.

“Oilada kim yetakchi bo‘lgani ma‘qul?”ligi bo‘yicha respondentlardan 44,8% “Er-xotinning bamaslahat ishi ko‘rishi va bir-biriga nisbatan kompromiss (o‘zaro kelishuv) pozitsiyada bo‘lishi muhimroq”, 43,1% ishtirokchilar “Er”, 7,7% “Xotin”, 4,4% “Javob berishga qiynalaman” deb javob berishgan, ya‘ni bugungi atrof-muhitni vizual kuzatar ekanmiz, ko‘chada, bozorda, do‘konlarda, istirohat bog‘larda oilada er-xotinning o‘zaro munosabati juda muhimligini bevosita ko‘rishimiz mumkin, ammo ba‘zi hollarda buni teskari holatini ham kuzatishimiz mumkin. 4,4% respondentlar oilaning boshqaruvida “Javob berishga qiynalaman” javobi kam foizni ko‘rsatsa-da, ammo bu qaysidir jihatdan respondentlarning befarqliqdan dalolat beradi.

Farzandlar tarbiyasida ota-onaning mas‘ulligi bo‘yicha respondentlardan 70% “Er va xotinning birgalikdagi ma‘ulligida bo‘lishi zarur”, 21% “Erning”, 9% “Xotinning” degan javoblar oilada farzand tarbiyasi borasida er va xotinning o‘rni juda muhimligi farzandning yetuk bo‘lishida roli kattadir. Oilada ota-ona farzandi bilan qanchalik ko‘p suhbat qursa, farzandning o‘ziga bo‘lgan ishonchi yana ortada bu esa sog‘lom jamiyat barpo etishimizning poydevoridir.

Oilada kimning ta‘siri yuqori ekanligi so‘ralganda respondentlardan 48,6% “Ota-onamning”, 13,6% “Otamning”, 11,7% “Onamning”, 6,3% “Men istiqomat qiladigan mahalla”, 5,6% “Ta‘lim muassasining”, 4,1% “Oiladagi bobo va buvilarning”, 3,6% “Diniy tashkilotlar, imom yoki

otinoyilarning, 3,4% “Boshqa”, 2,9% “Mustaqil – o‘zim internet saytlari orqali o‘rganishim va tayyorlashim lozim” degan javoblar olingan. Oila qurushda ota-onalarning roli katta bo‘lishi yoshlarimiz uchun juda ham muhim sanaladi. Demak, 48,6 foizdan shu ma‘lumki, bugungi barpo bo‘layotgan oilalarda ota-onalarning roli muhim. Hozirda internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tanishib, oila qurayotganlar ham yo‘q emasligi ma‘lum bo‘ldi.

Qanday oila shaklida yashash so‘ralganda, jami respondentlardan 39,30% “Nuklear oila turida (ota-onalar bilan birga yashash), 37,30% “O‘z oilamni alohida yashashini xohlayman”, 21,20% “Bobo va buvilar yetakchi bo‘lgan, milliy qadriyatlarga suyangan katta patrialxal oilada yashashni xohlayman”, 2,20% esa “Javob berishga qiynalaman” qatorini tanlashgan. Demak, 37,30% “O‘z oilamni alohida yashashini xohlayman” degan javobidan ma‘lumki, aksariyat yoshlar oila qurgandan keyin ota-onasiga qarash, xizmat qilish tushunchalaridan ancha yiroq ekanligidan dalolat beradi.

Demak, yuqoridagi tahlillar natijalariga asoslanadigan bo‘lsak, masalaning mohiyati, ya‘ni aksariyat hollarda o‘smirlar oilaviy hayotga ma‘naviy tayyor emasliklari, ajrashishlarning ortib borayotganligi, to‘liq bo‘lmagan oilalar, oiladagi zo‘ravonlik, bolalar qarovsizligi, yolg‘iz hamda uysiz oilalar sonining ko‘payishining oldini olish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish, ayniqsa, yoshlar orasida dolzarb bo‘lib, barcha sa‘y-harakatlarimizni o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash kerakligi, oilalar, ta‘lim-tarbiya tizimi, oila bilan bog‘liq davlat va jamoat tashkilotlarining bu masalaga ilmiy, amaliy va innovasion jihatdan yondashishlari zarurligini ko‘rsatmoqda. Binobarin, davlat oila siyosatining konseptual g‘oyalarini hayotga tatbiq etish, oilaviy qadriyatlarni o‘g‘il va qizlarning ongiga singdirish bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega va jiddiy vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika va psixologiyada tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmuasi mavjud bo‘lib, unda har bir inson amal qilishi shart hisoblangan urf-odat, udum, an‘ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o‘yin kabi amaliy faoliyatlar o‘z aksini topgan. O‘zbek xalqi o‘zining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida boy og‘zaki meros sifatida folklorning barcha janrlari (afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, askiyalar, qo‘shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar) ning ijodkori sanaladi. Qadriyatlar tizimi keng va turlicha bo‘lib, ulardan integratsion yondashuv jaarayonida samarali foydalanishga ahamiyat beriladi.

Qanday oila shaklida yashash so‘ralganda, jami respondentlardan 39,30% “Nuklear oila turida (ota-onalar bilan birga yashash), 37,30% “O‘z oilamni alohida yashashini xohlayman”, 21,20% “Bobo va buvilar yetakchi bo‘lgan, milliy qadriyatlarga suyangan katta patrialxal oilada yashashni xohlayman”, 2,20% esa “Javob berishga qiynalaman” qatorini tanlashgan.

O'smirlarning oila haqidagi turli qarashlar, oila ichidagi ierarxiya, oiladagi munosabatlar qoidalari, oilaviy hayotning maqsadi va mazmuni asosiy rol o'ynaydi. Haqiqiy erkak kim? Zamonaviy dunyoda u qanday fazilatlar muhtoj. Ota oilada qanday rol o'ynaydi? U haqiqatan ham faqat boquvchimi yoki u hali ham oila boshlig'i, u barcha uchun javobgarmi? Bugungi kunda ayollar qanday ko'rinishga ega?

Nihoyat, agar oilaviy hayotning axloqiy tarkibiy qismi hisobga olinmasa, oilaviy hayotga muvaffaqiyatli tayyorgarlik haqida gapirish befoyda. Oilaviy hayotga tayyorgarlik tadbirlar dasturi, birinchi navbatda, oilaga nisbatan axloqiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Oilaviy hayotga tayyorgarlikning axloqiy asosi o'smirlarning o'z-o'ziga nisbatan halol bo'lishga, zo'ravonlik, yolg'on va xudbinlikka emas, ya'ni o'smir **egotsentrik** tizimdan **sotsiotsentrik** tizimga o'tishi kerak.

O'smirlarning oila haqidagi turli qarashlar, oila ichidagi ierarxiya, oiladagi munosabatlar qoidalari, oilaviy hayotning maqsadi va mazmuni asosiy rol o'ynaydi. Haqiqiy erkak kim? Zamonaviy dunyoda u qanday fazilatlar muhtoj. Ota oilada qanday rol o'ynaydi? U haqiqatan ham faqat boquvchimi yoki u hali ham oila boshlig'i, u barcha uchun javobgarmi? Bugungi kunda ayollar qanday ko'rinishga ega? Ularga qanday fazilatlar xosdir? Ayol uchun nima muhim? Oila yoki martaba ikkalasini muvaffaqiyatli birlashtirish mumkinmi? Shunday qilib, yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash texnologiyasi hayotiy muhim sohada yosh avlodning ijtimoiy salohiyatini shakllantiradi va oshiradi.

Yakuniy qism. Oila ma'naviyati milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar ta'sirida yuksalib boradi. Oila instituti sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda axborot jamiyati hamda ijtimoiy-ma'naviy tahdidlar diskursida oiladagi ma'naviy muhitni belgilaydigan va yosh avlodning komil inson bo'lib shakllanishida ustuvor bo'lgan mazkur qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. O'smirlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi quyidagi psixologik-pedagogik qoidalarga amal qilish bilan belgilanadi. Ya'ni:

- o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularning yosh, shaxsiy, jinsiy xususiyatlarini inobatga olib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ularga individual munosabatda bo'lish;
- o'smirlarni pedagogik-psixologik diagnostika qilish asosida, ular bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. Buning uchun esa psixodiagnostika dasturini yaratish;
- o'smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar uning yoshi, dunyokarashi, mayli, qobiliyati va qiziqishiga mosligini inobatga olish;
- o'smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirning hayotiyliigi, qiziqarliligi, o'smirning hayotiy pozitsiyasiga mosligi;
- o'smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirni uyushtirishda ta'lim muassasasi va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini ta'minlash;

- oʻsmirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularga xos boʻlgan
“Men” pozitsiyasiga tayanish;
- tanlanadigan tarbiyaviy ish shakl va metodlarining zamonaviyligi,
qiziqarliligi, maʼlumotlar qamrovining hayotiylikiga erishish maqsadga
muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Юсупова Л. Ўзаро ишонч тарбия воситаси бўлсин. “Бола ва замон”. №2. 2006. Б.33.
2. Джабер Х.М.А. Семейные ценности в арабской культуре // Психология образования в поликультурном пространстве. 2016. № 33 (1). – С. 25.
3. Гаппаров Б.Н. ва бошқалар. “Замонавий тадқиқотлар, инновациялар, техника ва технологияларнинг долзарб муаммолари ва ривожланиш тенденциялари” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-техник анжуман. Жиззах. 10-11.04.2020, 1-том. 343-344 бетлар.
4. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 14.
5. Безрукова О.Н. Тенденции рождаемости, формирования семьи и репродуктивных установок подростков и молодежи в Санкт-Петербурге // Внутриутробный ребенок: материалы Всемирного конгресса. – М.: Academia, 2007. – С. 35-36.